



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA TURKMENISTONNING MADANIY  
GUMANITAR HAMKORLIGI TARIXI. (1991-2025-yillar)**

**Mirzayev G'ulom Rizoqulovich**

*Jamoat xavfsizligi universiteti o'qituvchisi. Tarix fanlari doktori, dotsent  
+99893 581-56-67*

**Tajimuratov Doniyor Baxromovich**

*Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi  
[tajimuratovdoniyor55@gmail.com](mailto:tajimuratovdoniyor55@gmail.com)*

*Tel: +99899 650-19-19*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek va turkman xalqarining o'zaro do'stligi, Navoiy va Mahtumquli ijodi, o'zbek va turkman xalqlarini bir-biriga bog'lab turadigan o'zaro hamkorlik aloqalari, Iqtisodiyot va savdo, transport, energetika, sog'lioni saqlash, madaniyat, ta'lim va mudofaa sanoati kabi sohalardagi hamkorlik, "O'zbekiston – umumiy uyimiz" shiori ostidagi hamkorligimiz, Arxeolog olimlarimiz tomonidan Janubiy Turkmanistonda olib borilgan qazishma ishlari, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 19-fevraldagagi "Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog'iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori, "Ulli hovli" yodgorlik majmuasi haqida, Ikki qardosh el uchun birdek ardoqli bo'lgan shoirning barkamol asarlari mamlakatimizda muntazam ravishda, yirik adadlarda nashr etilayotganligi to'g'risida, Gurbanguli Berdimuhamedovning mamlakatimizga tashrifi, 2025-yil 4-iyun kuni "Avaza" milliy turistik zonasida "Do'stlik yurti" xalqaro raqs va folklor festivalining tantanali ochilish marosimining bo'lishi, Davlatimiz rahbari qizi Saida Mirziyoyeva nutqi

**Kalit so'zlar:** Ashxobod zilzilasining oqibatlarini bartaraf etishda yordam, ikki davlat rahbarlari o'rtaida o'rnatilgan iliq va do'stona munosabatlari, o'zbek va turkman xalqlarini bir-biriga bog'lab turadigan tarix, madaniyat va urf-odatlar, "Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog'iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaror, 2025-yil 4-iyun kuni "Avaza" milliy



*turistik zonasida “Do’stlik yurti” xalqaro raqs va folklor festivalining tantanali ochilish marosimi bo‘lishi, “Tinchlik va ishonch yili” deb e’lon qilinishi*

O‘zbek va turkman xalqlari qadim zamonlardan beri o‘zaro do‘slik va hamjihatlikda yashab, o‘z madaniyatlarini o‘zaro boyitib kelmoqdalar. O‘zbeklar va turkmanlarning o‘ziga xos do‘slik ildizlari mavjud. Ikki qardosh xalqlar asrlar davomida bitta daryodan suv ichib keladi. O‘zbeklarda shunday maqol bor “do‘slik kulfatda bilinadi”. O‘zbek va turkman xalqlarining do‘slik munosabatlari asrlar davomida sinovdan o’tgan. Qiyin damlarda ikki mamlakat xalqi doimo bir-birini qo‘llab-quvvatlab kelgan, shuningdek, turkman xalqining azob-uqubatlarini o‘zbek xalqi o‘ziniki sifatida qabul qilgan.

“Turkman” iborasi odatda, “turk” atamasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Bunday qarash oddiy xalq orasida ham saqlanib qolgan bo‘lib, jumladan, turkman millatiga mansub ayrim axborotchilarning fikriga ko‘ra, “turk” – “birlashgan”, “kuchli”, “qudratli”, “man” – “odam”, yani “kuchli odam” degan ma’noni anglatadi.<sup>1</sup>

Mazkur atamaga Abulg‘oz Bahodirxon tomonidan “turkmonand”, ya’ni “turkka o‘xshash, keyinchalik oddiy xalq ushbu so‘zni aytolmasdan, ularni “turkman” deb atay boshladi” – deya tarif berilgan.<sup>2</sup>

V.V.Bartold 1929 yilda “Turkman xalqi tarixi” asarini yozgan. Mazkur asarda turkman xalqining paydo bo‘lishidan to XIX asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, o‘g‘uz (turkman)lar tarixi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.<sup>3</sup>.

Xorazm arxeologiya–etnografiya ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstov o‘zining ko‘plab tadqiqotlarida turkmanlar etnogenezi va etnik tarixi masalasiga alohida to‘xtalgan. U o‘zining “Qadimgi Xorazm” asarida “Massaget etnik qatlami aynan turkman etnogenetida eng katta rolga ega bo‘lib, teke urug‘i vakillari esa daxlarning bevosita avlodи hisoblanadi” – deya ta’riflagan.<sup>4</sup> Ammo, muallifning ushbu fikri

<sup>1</sup> Даала ёзувлари. Хоразм вилояти Янгиарик тумани Гулланбог қишлоғи. 2020 йил.

<sup>2</sup> Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи тарокима.... – Б. 32.

<sup>3</sup> Бартольд. В. В. Очерк истории туркменского народа. Сочинения. Т. 2. Часть 1. – Москва: Изд. Восточной литературы, 1963. – С. 547–627.

<sup>4</sup> Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – Москва, 1948. – 351 с.



ancha munozarali bo‘lib, alohida tadqiqot doirasida o‘rganishni talab etadi. Bundan tashqari, S.P.Tolstovning boshqa bir asarida Xorazm vohasida o‘zbeklar bilan yonma-yon xo‘jalik faoliyati olib borgan qoraqalpoq va turkmanlar haqidagi qiyosiy ma’lumotlar uchraydi.<sup>5</sup> Bu orqali Xorazm hududidagi Turkmanlar haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Xususan O‘zbekiston birinchlardan bo‘lib Turkmaniston xalqiga 1948-yil Ashxobod zilzilasining oqibatlarini bartaraf etishda yordam bergan. Ushbu voqeа xronikasida qayd etilganidek, Toshkent zilzila haqidagi ma’lumotlarni birinchi bo‘lib qabul qildi. O‘zbekiston shifokorlari darhol Ashxobodga jo‘nab ketishdi. Minglab yaradorlar va yetim bolalar O‘zbekistonga ko‘chirildi. Bu esa gumanitar yordamning ikkinchi jahon urushi vaqtida ham mavjud ekanini anglatadi.

Ta’kidlash joizki, madaniy meros ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarda alohida o‘rin tutadi. Navoiyni o‘qimaydigan turkman oilasini yoki Maxtumquli ijodi bilan tanish bo‘lmagan o‘zbekni topish qiyin. Maxtumquli ijodiyoti O‘zbekiston maktablarida va o‘zbek olimlari tomonidan keng o‘rganiladi.

Ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘rnatilgan iliq va do‘stona munosabatlar, Prezidentlarning siyosiy irodasi va uzoqni ko‘zlagan oqilona siyosati natijasida keyingi yillarda, ayniqsa, 2017-yildan keyin munosabatlarimiz butunlay yangi bosqichga chiqdi. Xalqlarimiz o‘rtasida ishonchli do‘stlik atmosferasi yaratildi. 2017-yilning mart oyida “Strategik sherikchilik to‘g‘risidagi” Sharhnomasi imzolandi.

Alovida ta’kidlash joiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida ilk xorijiy tashrifi 2017-yil 6-7 mart kunlari Turkmanistonga bo‘lgan edi. Mazkur tarixiy tashrif O‘zbekiston tashqi siyosatida yaxshi qo‘sniqchilik munosabatlariga alohida ahamiyat qaratayotganining yorqin dalili, davlatimiz rahbarining qo‘sni mamlakatlar bilan do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashga intilishining ifodasi sifatida e’tirof etildi. Mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash mamlakatlarimiz hamkorligida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston va Turkmaniston Markaziy Osiyoda tinchlik va barqaror rivojlanishning

<sup>5</sup> Толстова Л. С. Каракалпаки за пределами Хорезмского оазиса в XIX – начале XX века. – Нукус-Ташкент, 1963. – 228 с.



samarali mexanizmlarini yaratish tarafidir. Mamlakatlarimiz Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha yakdil fikrga ega. O'zbekiston va Turkmaniston vakillari ikki mamlakatda tashkil etilayotgan turli madaniy tadbirlar, konsertlar, festivallar va tanlovlardan, sport musobaqalarida faol ishtiroy etmoqda. 2017-yil may oyida o'zbek va turkman xalqlari boqiy do'stligi hamda qardoshligining ramzi sifatida Toshkent shahrida Maxtumquli nomidagi ko'cha va unga bag'ishlangan me'moriy yodgorlik ochilgan edi.<sup>6</sup>

Bugun ikki davlat o'rtaida do'stlik va qardoshlikka asoslangan munosabatlar modeli yaratilgan. Iqtisodiyot va savdo, transport, energetika, sog'liqni saqlash, madaniyat, ta'lif va mudofaa sanoati kabi sohalarda ikki tomonlama hamkorligimiz tobora ortib borayotir. Ikkala davlat do'st bo'lib birgalikda harakat qilsa Afg'onistondagi notinchlik, beboslik muammosi tinch yo'l bilan hal qilinishi mumkin.

Aytish joizki, o'zbek va turkman xalqlarini bir-biriga bog'lab turadigan tarix, madaniyat va urf-odatlar xalqlarimizning umumiyligi mulkiga aylangan. Bu yaqinlik madaniy-gumanitar rishtalarni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yana bir muhim jihat. Yurtimizda turkman tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash va rivojlantirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Xususan, O'zbekistonda turkman tilida ta'lif beradigan 44 ta maktab mavjud. Qoraqalpoq davlat universiteti turkman filologiyasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida turkman tili o'qituvchilari tayyorlanmoqda. hamkorligimizni yanada yuqori bosqichga ko'taradi.<sup>7</sup>

Shu o'rinda aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari orasida 206 mingdan ziyod turkman birodarlarimiz jonajon yurtimiz taraqqiyoti yo'lida mehnat qilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda turkmanlarning milliy madaniyati, tili, an'analarini va urf-odatlarini

<sup>6</sup> <https://old.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-turkmaniston-hamkorlikning-yangi-bosqichi.html>

<sup>7</sup> <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-turkmaniston-dostlik-rishtalari-yanada-mustahkamlanmoqda>



asrash hamda rivojlantirish maqsadida Respublika turkman madaniy markazi faoliyat uchun barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilgan.<sup>8</sup>

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi “Turkmanlar” mahallasida joylashgan qadimiy “Ulli hovli” yodgorlik majmuasi qayta ta’mirlanib, foydalanishga topshirildi. Poytaxtimiz markazida bunyod etilgan “Ashxobod” bog‘i minglab vatandoshlarimiz va poytaxtimiz mehmonlarining sevimli go‘sasiga aylanib ulgurdi.

Rasmiy Ashxobod ko‘plab buyuk insonlar, alloma va shoirlarga beshik bo‘lgan mo‘tabar diyor. Jumladan, turkman xalqining benazir farzandi Maxtumquli Firog‘iy ijodi nafaqat Sharq, balki jahon adabiyotida alohida o‘ringa ega. Uning o‘lmas adabiy merosi asrlar davomida umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lib, tinchlik-totuvlik, mehr-oqibat va qardoshlik kabi oljanob fazilatlarni ulug‘lab kelmoqda.

Turkman shori Mahtumqulini o‘zbekiston xalqi hurmat bilan tilga oladi. Shoirning asarlari mard va matonatli, mehnatkash turkman xalqining ezgu qadriyatları va oljanob fazilatlarini tarannum etishi, hamisha xalq bilan hamdard bo‘lishga, turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro ahillik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan mazmun-mohiyati bilan barchamiz, ayniqsa, yoshlارимиз uchun ibrat namunasidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 19-fevraldagagi “Buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ham o‘zbek xalqining Maxtumquli Firog‘iy siyosida qardosh Turkmaniston xalqiga, uning boy tarixi va madaniyati, urf-odat va qadriyatlariga hurmat-ehtiromining yorqin ifodasi, desak mubolag‘a emas. Ikki qardosh el uchun birdek ardoqli bo‘lgan shoirning barkamol asarlari mamlakatimizda muntazam ravishda, yirik adadlarda nashr etilmoqda. Toshkent va Xiva shaharlarida shoir xotirasiga bag‘ishlab bunyod etilgan yodgorlik majmualari tabarruk ziyyaratgohlarga aylangan. Teatrلаримизда shoir haqida spektakllar qo‘yilib, o‘zbek va turkman kino ustalari hamkorligida badiiy film suratga olinyapti.

<sup>8</sup> <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-turkmaniston-doston-a-hil-qoshnichilik-munosabatlari-rivojlanmoqda>



Davlatimiz rahbarining Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning taklifiga binoan ushbu mamlakatga amaliy tashrifi mamlakatlarimiz chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan yaxshi qo‘schnichilik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Ushbu tashrifni xalqimiz yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlab, uning doirasidagi tadbirlarni katta qiziqish va hayajon bilan kuzatib bordi. Ayniqsa, Ashxobod shahrida turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligiga bag‘ishlangan “Zamon va sivilizatsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi — tinchlik va taraqqiyot asosi” mavzusidagi xalqaro forum xalqlarimiz qalbining izhoriga aylandi.

Bunday muhim ma’naviy-ma’rifiy qadam, O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik hamda yaxshi qo‘schnichilik munosabatlari tarixida yangi davr boshlangan hozirgi paytda muhim o‘rin tutadi. Zotan, yuqori saviyada o‘tgan tadbir ikki xalqni bog‘lab turgan o‘zaro manfaatli va faol muloqotning mantiqiy davomidir.

Umuman olganda, O‘zbekiston bilan Turkmanistonni avvalo, ma’naviy-ruhiy yaqinlik birlashtiradi, tarix birlashtiradi, qon-qardoshlik birlashtiradi. Ushbu tashrif mamlakatlarimiz o‘rtasida ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Asosiysi, davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan boyitgan holda, o‘zaro manfaatli hamkorligimizni yanada yuqori bosqichga ko‘taradi.<sup>9</sup>

2017-yil 1-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o‘rtasida strategik sheriklik to‘g‘risida shartnomani (Ashxobod, 2017-yil 6-mart) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonuni qabul qilindi.

O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 24-avgustdagи, 2019-yil 10-oktyabrdagi, 2021-yil 29-apreldagi Turkmanistonga amaliy tashriflari davomida ham O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘schnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ko‘p qirrali hamkorlik va mintaqaviy sheriklikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

<sup>9</sup> <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-turkmaniston-dostlik-rishtalari-yanada-mustahkamlamoqda>



Gurbanguli Berdimuhamedovning mamlakatimizga bu galgi rasmiy tashrifi yuqoridagi ustuvor maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish barobarida, joriy yilning 6-7 avgust kunlari Turkmanistonning Avaza shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi maslahat uchrashuvida ko'tarilgan ikki qardosh xalqning hayoti va taqdiri uchun muhim bo'lgan ustuvor masalalarni yana bir bor muhokama qilishga, asrlar mobaynida shakllanib kelgan do'stlik rishtalari mustahkamlanishiga, xalqaro siyosat maydonida yuzaga kelayotgan dolzarb masalalar yuzasidan fikrlar almashishga xizmat qilishi, shubhasiz.<sup>10</sup>

2025-yil 4-iyun kuni "Avaza" milliy turistik zonasida "Do'stlik yurti" xalqaro raqs va folklor festivalining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu keng ko'lami forum dunyo ahlini qadimiy folkloarning noyob milliy raqs san'ati bilan tanishtirish, shuningdek, madaniyatlararo aloqalarni sezilarli darajada kengaytirish maqsadida tashkil etildi. Madaniyat sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish va yanada kengaytirishdir. Bizga Turkmaniston raqlari, lazgilari, turli xil raqlari, Toshkentdagi raqlari, raqlari, raqlari tayyorlandi raqs va musiqa katta ishtiyoq bilan Turkmanistonda bo'lib o'tgan raqs va musiqiy jamoalarning ko'pchiligi turli xalqlarning musiqiy janrlari va an'anaviy an'analarining boy palitrasи namoyish etildi. Tinchlik va do'stona munosabatlarni rivojlantirishga bag'ishlangan tadbirda tomoshabinlar raqs va musiqa olamiga mahliyo bo'lib, xalq raqlari va qo'shiqlari ishtirokchilarning o'ziga xos iste'dodlarini namoyish etishdi va qadimgi kelib chiqishi bilan tanishdilar, bu raqs 2017 yilda YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan. Bu joy tarix va zamonaviylikni birlashtirgan kuchli hayotni tasdiqlovchi xabarga ega.

Festivalning 3-kunida ishtirokchilar ijodiy uchrashuvlar, xoreografiya mahorat saboqlari, xalq amaliy san'ati jamoalari va folklor-etnografik ansambllar har oqshom o'z xalqining milliy san'atini aks ettiruvchi raqamlar bilan tomoshabinlarni xushnud etdi.

<sup>10</sup> <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkmaniston-doston-a-ahil-qoshnichilik-munosabatlari-rivojlanmoqda>



Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston xalq maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedov 2025-yil 23-aprel kuni tashrif bilan Samarqandga keldi. Samarqandga kelgan Turkmaniston Xalq maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va prezident Shavkat Mirziyoyev Hazrati Xizr majmuasiga borib, Islom Karimov qabriga gul qo‘ydi, so‘ng “Boqiy shahar”dagi madaniy tadbirda ishtirok etdi. Oliy martabali mehmon O‘zbekiston xalqining boy madaniy merosini aks ettiruvchi ko‘rgazmalar, hunarmandchilik va amaliy san’at namunalari bilan tanishdi. Raqs jamoalarining chiqishlaridan iborat madaniy dastur namoyish etildi. Oliy martabali mehmon xalqimizning boy madaniy merosini aks ettiruvchi ko‘rgazmalar, hunarmandchilik va amaliy san’at namunalari bilan tanishdi.

*Tashrif dasturiga muvofiq ikki tomonlama uchrashuv o‘tkazish ko‘zda utilgan. Muzokaralarda O‘zbekiston — Turkmaniston do‘slik, yaxshi qo‘sni chilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.<sup>11</sup> Bundan ikki davlat o‘rtasidagi madaniy gumanitar hamkorlik kundan kunga kengayib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.*

Birgalikda “Shovot — Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasi tashkil etilmoqda. Faol hududlararo muloqotlar yo‘lga qo‘yilgan, madaniy-gumanitar almashinuv bo‘yicha katta dasturlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilda Xiva shahrida uchinchi Hududlar forumini hamda O‘zbekistonda Turkmaniston madaniyati kunlarini o‘tkazishga kelishib olindi. O‘zbekiston va Turkmaniston yetakchilari mintaqaviy sheriklikka doir masalalar, shu jumladan, “Markaziy Osiyo plyus” formatidagi bo‘lajak sammitlar va Toshkent shahrida o‘tkaziladigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan fikr almashdilar. Madaniy-gumanitar hamkorlik yuksak e’tirofga loyiq. Masalan, o‘tgan yili Ashxobod va Toshkentda Maxtumquli asarlarining o‘zbek tilidagi to‘plami taqdimot qilindi, shuningdek, Ashxobod xalqaro kinofestivalida o‘zbek — turkman badiiy filmining premerasi bo‘lib o‘tdi. Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhammedov

<sup>11</sup> 2025 йил 24 апрель, № 83 (8978)



ko'rsatilgan yuksak hurmat va ehtirom uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev va o'zbek xalqiga minnatdorlik izhor etdi. Azaldan qardosh bo'lib, yaqin qo'shnichilik an'analari asosida yashab kelayotgan o'zbek va turkman xalqlari o'rtaсидаги do'stlik, hamkorlik bundan buyon ham mustahkamlanishi, bu ezgu ishga hissa qo'shish u uchun sharaf ekanligini ta'kidladi. Marosimda so'zga chiqqanlar Gurbanguli Berdimuhamedovga O'zbekiston Respublikasining oliv mukofoti topshirilishi ko'p millatli xalqimizning atoqli davlat arbobi, bugungi Turkmanistonning milliy yetakchisi va me'mori sifatida unga nisbatan samimiy hurmat ehtiromi ifodasi bo'lganini ta'kidladilar. Rasmiy tadbirlar yakunlangach, Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov Kongress markazining Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda eman daraxtini ekdilar. Marosim ikki qardosh xalq o'rtaсидаги ko'p asrlik mustahkam do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari, O'zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish borasidagi qat'iy intilishning ramzi bo'ldi.<sup>12</sup>

Turkman va o'zbeklar shunchaki qo'shni emas. Biz tili, madaniyati, dini bilan bog'langan, o'tmish, bugun va kelajakdagи yagona taqdirini his etayotgan qardoshlarmiz. Bu haqda so'z yuritganda, uchta qadim naqlni keltirmoqchiman:

- qo'shni keldi – ko'mak keldi;
- mehmon otangdan ulug';
- qiyomat kuni - qo'shnidan.

O'zbek birodarlarimizga nisbatan his-tuyg'ularimizning asl mohiyati, birgalikda barpo etish, rivojlanish, o'zaro hamkorlik qilishga doir tasavvurlarimiz aynan shu maqollarda mujassam deb ta'kidlagan Turkmaniston milliy kengashi xalq maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedov. 2002-yil 11-noyabr kuni Samarqanddagи sammit doirasidagi marosimda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qo'llaridan "Turkiy dunyoning oliv ordeni"ni olayotganida shu haqda ko'p o'ylaganini aytib o'tgan. Bilaman, Siz, qardoshim qo'llab-quvvatlagani uchun ushbu

<sup>12</sup> Xalq so'zi gazetasi. 2025 йил 25 апрель, № 84 (8979)



yuksak mukofotga sazovor bo‘ldim. Buning uchun chuqur minnatdorligimni qabul qiling degan edi.<sup>13</sup>

“Tug‘ishgan ikki xalq” ning o‘zaro hamfikrligi, ochiq ruhdagi va samimiy muloqoti ellarimizga, birinchi galda yosh avlodlarimizga ibrat va namuna bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz deb aytgan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

2025-yil 24-aprel kuni Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga O‘zbekiston Respublikasining yuksak davlat mukofoti – “Oliy Darajali Do‘stlik” ordenini tantanali topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Qardosh Turkmanistonning barcha ulkan yutuqlari, keng ko‘lamli yangilanishlari va xalqaro maydondagi nufuzi yuksalishi sizning nomingiz bilan chambarchas bog‘liq, - dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Shu munosabat bilan Gurbanguli Berdimuhamedovning 2025-yilni “Tinchlik va ishonch yili” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi taklifi xalqaro miqyosda keng qo‘llab-quvvatlangani ta’kidlandi. Turkmaniston yetakchisining shaxsiy sa’y-harakatlari tufayli O‘zbekiston-Turkmaniston munosabatlari bugungi kunda yuksak darajaga chiqqani, haqiqatdan namunaviy tus olgani ta’kidlandi.<sup>14</sup>

Davlatimiz rahbari qizi Saida Mirziyoyeva 2025-yil mart oyida Arqadag‘ shahrida Oguljahan Gurbanguliyevna Atabayeva taklifiga binoan Arqadag‘ shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyaga tashrif buyurdi. Prezidentimiz qizi, davlat maslahatchisi tashrif davomida Turkman shoiri Mahtumquli Firog‘iyning quyidagi she’rini o‘qib berdi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, ikki davlat do‘stligi azaldan mavjud bo‘lgan.

Go‘zu mehrki sensiz ko‘rinmas jahon ey do‘st,

Ne jahon, bilki tende bo‘lsa jon ey do‘st.

<sup>13</sup> <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-prezidenti-va-turkmaniston-khalq-maslahati-raisi-khalqlarimiz-ortasidagi-kop-asrlik-dostlik-va-yakhshi-qoshnichilik-munosabatlarini-yanada-mustahkamlashga-intilishlarini-tasdiqladilar>

<sup>14</sup> <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-gurbanguli-berdimuhamedovni-oliy-darajali-dostlik-ordeni-bilan-mukofotladi>



O‘zbek va turkman xalqlari bir daryoning ikki sohili, bir daraxtning ikki shoxi, bir g‘azalning ikki satri kabi yaqindir. Bizni nafaqat qo‘snnichilik, balki asrlar davomida shakllangan qon-qardoshlik aloqalari, umumiyl madaniyat va buyuk tarix bog‘lab turadi deb Prezidentimiz qizi Saida Mirziyoyeva. Davlat maslahatchisi aytgan gaplari qanchalik to‘g‘ri ekanini ko‘rishimiz mumkin..

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, biz turkman birodarlarimizsiz ular bizlarsiz yashay olmaydilar. Qo‘snniga yopiq bo‘lishni baribir muammoga olib keladi. Hayotda ham shunday. Yordam bering keladi qo‘sning yordam so‘ramasa sen bormasang nima muammo, qanday yordam kerak deb so‘rash lozim ekan. Hayotiy tajribamda bu narsani guvohi bo‘ldim. Bo‘lmasa qandaydir yomon voqeа bo‘lishi mumkin. Qo‘snni, do‘stlarimizda ham yechilmagan muammolari bor. O‘zbekiston Respublikasi 2017-yildan deyarli barcha sohalarda oldingi o‘rinlarga chiqdi. Qo‘snnimizga yordam bera oladigan darajada. Shuning uchun eng yaqin do‘stlar bo‘lib bu do‘stlikni yanada mustahkamlashimiz kerak. Bu yerda faqat davlatimiz rahbari emas boshqa vazirlarimiz ham nima yordam kerak deb qo‘snnilarimizdan so‘rashi maqsadga muvofiq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://old.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-turkmaniston-hamkorlikning-yangi-bosqichi.html>
2. <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-turkmaniston-dostlik-rishtalari-yanada-mustahkamlanmoqda>
3. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkmaniston-doston-a-ahil-qoshnichilik-munosabatlari-rivojlanmoqda>
4. <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-turkmaniston-dostlik-rishtalari-yanada-mustahkamlanmoqda>
5. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkmaniston-doston-a-ahil-qoshnichilik-munosabatlari-rivojlanmoqda>
6. 2025 йил 24 апрель, № 83 (8978)
7. Xalq so‘zi gazetasi. 2025 йил 25 апрель, № 84 (8979)



8. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-prezidenti-va-turkmaniston-khalq-maslahati-raisi-khalqlarimiz-ortasidagi-kop-asrlik-dostlik-va-yakhshi-qoshnichilik-munosabatlarini-yanada-mustahkamlashga-intilishlarini-tasdiqladilar>

9. <https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-gurbanguli-berdimuhamedovni-oliy-darajali-dostlik-ordeni-bilan-mukofotladi>